

MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING JAMIYAT FAROVONLIGI UCHUN AHAMIYATI

Suyarov Zokirjon Ergashevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”

kafedrası katta o‘qituvchisi

Pazlidinov Biloldin Iqboliddin o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik tushunchasi, uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Moliyaviy savodxonlik insonlarning shaxsiy mablag‘larini boshqarish, investitsiya qilish va qarzlarni oqilona nazorat qilish qobiliyatini oshirish orqali jamiyat farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, moliyaviy jihatdan savodli jamiyat iqtisodiy barqarorlik, kambag‘allikni kamaytirish va umuman milliy farovonlikka erishishda asosiy omil sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar. Moliyaviy savodxonlik, jamiyat farovonligi, iqtisodiy barqarorlik, shaxsiy moliyaviy boshqaruv, investitsiya, qarzlarni boshqarish, moliyaviy ta’lim, iqtisodiy rivojlanish, milliy farovonlik, iqtisodiy bilimlar, davlat qo‘llab-quvvatlashi, moliyaviy xavfsizlik, ijtimoiy rivojlanish.

Kirish. Bugungi globallashuv va iqtisodiy o‘zgarishlar davrida moliyaviy savodxonlik har bir jamiyat uchun muhim omil hisoblanadi. Aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlab, shaxsiy va jamoaviy farovonlikka erishishda asosiy vositaga aylanadi. Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlikning mohiyati, uning shaxsiy va jamiyat farovonligi uchun ahamiyati, hamda uni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy mahsulot va xizmatlarni tushunishi, ulardan oqilona foydalanishi hamda moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Moliyaviy savodxonlikka byudjet tuzish, mablag‘larni tejash, investitsiya kiritish va qarzlarni boshqarish kiradi. Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlar quyidagi ijobiy ta’sirlarga erishadi:

1. **Iqtisodiy barqarorlik:** Aholining moliyaviy jihatdan ongli qarorlar qabul qilishi iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

2. **Kambag‘allikni kamaytirish:** Moliyaviy savodxonlik darajasi oshgan sari aholining daromadlarini oqilona taqsimlashi va tejash ko‘nikmalari yaxshilanadi.

3. **Ijtimoiy xavfsizlik:** Moliyaviy himoyalangan fuqarolar ijtimoiy muammolar va inqirozlar davrida barqarorlikni saqlay oladi.

4. **Investitsiyalarni ko'paytirish:** Moliyaviy savodxonlik orqali kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanadi, bu esa yangi ish o'rinlari yaratadi.

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish yo'llari

1. **Ta'lim tizimini takomillashtirish:** Maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy ta'lim kurslarini joriy qilish.

2. **Aholini xabardor qilish kampaniyalari:** Moliyaviy savodxonlik bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini olib borish.

3. **Davlat va xususiy hamkorlik:** Banklar va moliyaviy institutlarning aholiga moliyaviy maslahat xizmatlarini kengaytirishi.

Pulni tejash moliyaviy savodxonlikning muhim qismi bo'lsa-da, bu siz qilishingiz kerak bo'lgan yagona narsa emas. Pulingizni sarmoya qilish vaqt o'tishi bilan boyligingizni oshirishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, siz uchun mavjud hisoblar va mahsulotlarning har xil turlaridan xabardor bo'lish muhim, shuning uchun siz ehtiyojlaringizga eng mos keladiganini tanlashingiz mumkin.

Umuman olganda, moliyaviy savodxonlik - bu o'z pulingiz bilan oqilona qarorlar qabul qilish uchun bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Bu umr bo'yi davom etadigan sayohat, ammo bu safarga borishga arziydi. Agar odamlarda moliyaviy savodxonlik bolmasa ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy mummmolar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun: ko'p odamlar o'z pullarini oqilona sarflashni va hisoblashni bilmaydi lekin banklardan ko'p miqdorda kredit oladi u ham hisobsiz chunki ular faqat olayotgan puli haqida o'ylaydi lekin qaytarish vaqti kelganda moliyaviy tang ahvolda qoladi. Buning sababi ular hattoki kunlik va oylik topayotgan va sarflayotgan oz miqdordagi pullarni hisobini yuritmaydi. Katta miqdordagi pullarga kelganda esa tabiiyki yo'llari berdek bo'lib qoladi. Ohir oqibat moliyaviy qashshoqlashadi. Qarzlarni o'z vaqtida to'lay olamagan va zaruriy harajtlarni qoplay olamagn odamlarda deprssiya va xavotir paydo bo'ladi va keying hayotini ham og'irlashtiradi. Lekin muammolar bu bilan to'xtab qolmaydi ya'ni moliyaviy muammolar ko'pincha oilaviy mojarolarga va ajralishga sabab bo'lishi mumkin. Undanda yomon holat – jmayatdagi boylar va kambag'allar orasidagi farq oratdi va ular o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlaydi. Bu masalaning ijtimoiy tarafi holos.

Moliyaiy savodxonlikni yetishmasligi tufayli ishblarmonlik faoliyati pasayadi. Ya'ni tadbirkorlik qilmoqchi bo'lgan shaxslarda moliyaviy savodxonlik bo'lmagani uchun ular moliyaviy sarf harajlar rejasini no'to'g'ri belgilaydi va biznesda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Unday tashqari moliyaviy savodxonligi yo'q shaxslar investitsiya qilishdan qo'rqishadi yoki noto'g'ri investitsiya qilishadi, bu esa moliyaviy peramidalar, soxta "biznesmen"lar va shu kabi oson va tavakkalsiz boyib

ketishni taklif qiladiganlarga rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi. Yuqorida keltirilgan fikrlar bunday muanmolarning bir qismi holos aslida bundanda jiddiyoq xavflar bor. Shundan kelib chiqadiki moliyaviy savodxonlik jamiyatdagi shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizligi garovi hisoblanadi.

Bu haqida Spot.uz sayitida Iskandar Tursunov shunday yozadi “Jamiyatda insonlarning moliyaviy savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy xizmatlarning ortishi aholining savodxonlik darajasi yuqori bo‘lishini talab etadi.

Bu nima uchun muhim

Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo‘lishi to‘g‘ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbaini shakllantirishda hamda keksalikda o‘zining moddiy ehtiyojlarini qoplashi uchun aql bilan tadbirli ish tutushini ta‘minlaydi. Aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyati ham bor. Chunki, shaxsning moliya borasidagi bilim va ko‘nikmalari natijasida butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvaffaqiyati va barqarorligini belgilab beradi.

Aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun moliyaviy sohaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, fuqarolarning o‘z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki noto‘g‘ri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo bo‘ladi, moliyaviy piramidalar va firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi.

Global miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin. Insonlar boyligini, uning ilmsizligi, yetarli ma‘lumotga ega emasligi, haq-huquqlarini yaxshi bilmasligidan foydalangan holda osonlikcha o‘zlashtirish, aldov va firibgarlikdan foydalanish uzoq o‘tmishdan davom etib kelmoqda. Ayniqsa, texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda bu narsa yanada takomillashganligi bois moliyaviy xizmatlarning ishonarli yoki ishonarsiz manbalardan taklif etilayotganligini aniqlash imkoniyati juda murakkablashgan. Har qanday inson telefoniga kelgan aldov SMS-xabarlar yoki o‘ta professional darajada o‘zlarini reklama qilish orqali firibgarlikka qurilgan har xil (biznes piramidalar, virusli dasturlar, soxta tadbirkorlar, soxta yutuqli o‘yinlar va hokazo) xizmatlarning qurboniga aylanib qolishi mumkin.”([Moliyaviy savodxonlik va uning ahamiyati: muammolar va yechimlar – Spot](#))

Yuqorida aytilgan fikrlar moliyaviy savodsizlik tufayli kelib chiqqigan muammolar edi. Lekin biz pullarimizni tog‘ri boshqarishni o‘rgansak nima bo‘ladi? Albatta yuqoridagi muammolar yechiladi. Ya‘ni fuqarolar o‘z pulari qayerdan kelib qayerga sarflanayotganini nazotga olishadi va tahlil qilishadi. Buning natijasini quyidagi holatlarda korishimiz mumkin.

Shaxsiy moliyaviy barqarorlikni oshishi. Odamlar o'z daromadlarini to'g'ri boshqarish, jamg'arish, qarz olishda va investitsiya qilishda oqilona qarorlar qabul qiladi. Misol uchun: ular boshqarish va jamg'arishga katta e'tibor qaratadi ya'ni daromadni qancha qismini yashash uchun zaruriy harajatlarga (oziq-ovqat, kommunal to'lovlar, kiyim-kechak va h.k) sarflash, qancha qismi o'z hohish ustaklari uchun va qolganini kelajakdagi kutilmagan hodisalar yoki rejalari uchun. Ayniqsa qarz olish va investitsiya masalalarida hushyorroq bo'ladi chunki bu ikki omil ularni hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qarz olishda ular qarzning miqdorini, o'z oylik daromadlaridan kelib chiqib uni qancha muddatda qaytara olishini, olingan mablag'dan maksimal foyda olishni ko'zlaydi. Bu o'z navbatida moliyaviy tang ahvolda qolib ketishni oldini oladi. Investitsiya masalasi bundanda muhim, sababi fuqarilar o'z mehnati bilan topgan pullarida ayrilib qolishni hohlashmaydi va o'zlari investitsiya qilmoqchi bo'lgan sohalarni to'liq o'rganib chiqib investitsiya qiladilar. Bu esa ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi. Iqtisodiyotni rivojlanishiga hissa qo'shish: Moliyaviy savodxonlikka erishgan shaxs eni pullarini investitsiya qilib tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yadi bu iqtisodiyotni o'sishiga sabab bo'ladi. Qashshoqlikni kamaytirish: Moliyaviy bilimlar aholining qarzga botish xafini kamaytiradi va ularning moddiy sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Jamiyatdagi iqtisodiy xavfsilikni oshirish: moliyaviy bilimlarni olayotgan inson turli moliyaviy firibgarlardan va moliyaviy xavflardan ogoh bo'ladi. Bu esa turli sohta tadbirkorlar, moliyaviy peramidalar kabi jinoyatlarni oldini oladi.

Moliyaviy savodxonlik madaniyatining shakllanishi shaxslar va jamiyatda moliyaviy bilim va ko'nikmalar orqali amalga oshadi. Bu jarayon individual va ijtimoiy darajada amalga oshiriladi hamda bir necha bosqichlarni va omillarni o'z ichiga oladi.

1. Moliyaviy ta'limning rivojlanishi:

a) Maktab va oliy ta'lim muassasalari: Bu sektorlarda moliyaviy savodxonlik darslari va treyninglarini o'quv dasturiga kiritish kerak. **Robert Kiyosaki, "Boy ota, kambag'al ota" ("Rich Dad Poor Dad")**: "Boylar boy bo'lishda davom etadi, kambag'allar kambag'allashadi, o'rta sinf esa qarz botqog'ida qoladi, chunki maktablarda moliya haqida hech narsa o'rgatilmaydi."

b) Kurslar va treyninglar: yoshlar orasida darslardan tashqari moliyaviy rejalashtirish, investitsiya, byudjet boshqaruvi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.

c) Ommaviy axborot vositalari va internet: Bloglar, poscastlar, videolar orqali moliyaviy masalalar bo'yicha ma'lumot tarqatish.

2. Shaxsiy ma'suliyatni rivojlantirish

Мотивавий savodxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun odam o'z motivaviy holati uchun javobgarlikni his qilishlari muhimdir. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) Xarajat va daromadni tahlil qilish
- b) Ortib borayotgan xarajatlar muammosini anglash va ularni boshqarish
- c) Qarzdorlikka ma'sulyatli yondashuv

3. Oilada motivaviy ta'lim

Oilada motivaviy odatlarni shakllantirish motivaviy madaniyatning asosidir:

- a) Bolalarni yoshligidan jamg'arma qilishga o'rgatish
- b) Shaxsiy byudjetni boshqarish bo'yicha oilaviy maslahatlar o'tkazish
- c) Oilaviy motivaviy maqsadlarni belgilash va ularga birgalikda erishish

4. Motivaviy institutlarning ishtiroki

Banklar, sug'urta kompaniyalari, va boshqa motivaviy institutlar aholining motivaviy savodxonligini oshirishda katta rol o'ynaydi:

- a) Motivaviy mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha tushunarli ma'lumot taqdim etish.
- b) Motivaviy xizmatlardan foydalanishda mijozlarni o'rgatish.
- c) Aholini firibgarlikdan himoya qilish bo'yicha kampaniyalar o'tkazish.

5. Davlat siyosati va qonunchilik

Davlat tomonidan motivaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar va qonunlarning qabul qilinishi quyidagi natijalarni beradi:

- a) Motivaviy ta'limni ommalashtirish.
- b) Motivaviy firibgarlikka qarshi kurashish.
- c) Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi qoidalarni joriy etish.

6. Texnologiyalardan foydalanish

Raqamli texnologiyalar motivaviy savodxonlik madaniyatini rivojlantirishda qulay imkoniyat yaratadi:

- a) Motivaviy mobil ilovalar yordamida byudjetni boshqarish.
- b) Onlayn motivaviy kurslarda qatnashish.
- c) Investitsiya yoki kredit kalkulyatorlaridan foydalanish.

Xulosa. Motivaviy savodxonlik shaxsiy va jamiyat farovonligining muhim poydevori hisoblanadi. Aholining motivaviy jihatdan savodli bo'lishi mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib, kelajak avlodning iqtisodiy farovonligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD (2016). "OECD/INFE Financial Literacy Framework." OECD Publishing. Ushbu hisobot moliya savodxonligi asoslarini va uning ahamiyatini tahlil qiladi. Lusardi, A. & Mitchell, O. S. (2014). "The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence." *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5-44.
2. Moliya savodxonligining iqtisodiy ahamiyati haqida chuqur tahlil. Atkinson, A. & Messy, F. A. (2012). "Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study." *OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions*, No. 15.
3. Kaiser, T. & Menkhoff, L. (2017). "Financial Literacy and Financial Stability: A Review of the Literature." *Journal of Economic Surveys*, 31(4), 985-1004.
4. World Bank (2014). "The Global Financial Inclusion Database." Moliyaviy inklyuzivlik va moliya savodxonligi haqida xalqaro ma'lumotlar.
5. Bertaut, C. & Haliassos, M. (2006). "Inequality of Financial Literacy: Evidence from the Survey of Consumer Finances." *The Review of Income and Wealth*, 52(3), 373-395.